

## MA'NAVIY TARAQQIYOT – UCHINCHI RENESSANS YO'LIDAGI MUHIM QADAM

**Javokhir Ergashov Inomjon o'g'li**

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi

magistratura yo'nalishi magistri

[ergashevjavohirjon@gmail.com](mailto:ergashevjavohirjon@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada, ma'naviyat, taraqqiyot, Uchinchi Renessans haqida hamda bu borada qilinayotgan ishlar, ishlab chiqilayotgan qonun hujjatlari hamda ularning hayotga tatbiq etilishi haqida so'z boradi. Ushbu islohotlarning amaliy ifodasi haqida fikr yuritayotgan hamda o'zlarining shaxsiy munosabatlarini bildirayotgan olimlar, professorlar, malakali jurnalistlarning qarashlarini ham yoritib berishga va shu asosda xulosalar berishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar.** Yangi O'zbekiston, Ma'naviyat, Renessans, qarorlar, ilm-fan, taraqqiyot

### ABSTRACT

The article talks about spirituality, development, the Third Renaissance, the work being done in this regard, the legal documents being developed, and their implementation. An attempt was made to illuminate the views of scientists, professors, qualified journalists who are thinking about the practical expression of these reforms and express their personal relationships, and draw conclusions based on this.

**Keywords:** New Uzbekistan, Spirituality, Renaissance, decisions, science, development.

### АННОТАЦИЯ

В статье говорится о духовности, развитии, Третьем Возрождении, проводимой работе в этом направлении, разрабатываемых правовых документах и их реализации. Предпринята попытка выяснить взгляды ученых, профессоров и

квалифицированных журналистов, размышляющих о практическом выражении этих реформ и выражающих свое личное отношение, и сделать на основании этого выводы.

**Ключевые слова.** Новый Узбекистан, Духовность, Возрождение, решения, наука, развитие

## **KIRISH**

Bugungi kunda O‘zbekistonda ulkan islohotlar amalga oshirib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yurtimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish hamda “Yangi O‘zbekiston” jamiyatini shakllantirish ishlari amalga oshirib borilmoqda. Bu yo‘lda yurtboshimiz Yurtimizda yangi bir “Uyg‘onish davri” – Uchinchi Renessansni amalga oshirish ishlariga alohida e‘tibor berilmoqda. Buning uchun esa avvalo ma‘naviy taraqqiyot hamda ilmiy faoliyatga e‘tibor qaratish joiz. Ushbu maqolada esa, aynan, ma‘naviy taraqqiyot hamda Uchinchi Renessansga eltuvchi yo‘ldagi say – harakatlar ochib beriladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Maqolani yozish davomida bir qancha manbalarga va adabiyotlar murojat qilamiz. Ushbu mavzuga doir ma‘lumotlarni aniqlash va tahlil qilish davomida Uchunchi Renessansni amalga oshirish jarayonlarining “yo‘l xaritasi”ni tatbiq etib borayotgan prezident qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa turli qonun hujjatlari, misol uchun PQ-3775-сон 05.06.2018. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz), ushbu jarayonlarni yoritib borayotgan mahalliy va xalqaro internet saytlari, xususan, Uchinchi renessans – yangi o‘zbekistonning taraqqiyot, tinchlik va farovonlik kafolati (uza.uz), turli gazeta va jurnallarni olishimiz, bularga qo‘shimcha tarzida esa fan doktorlari, professorlar va siyosiy arboblarning sodir bo‘layotgan jarayonlar haqidagi sharhlarini ham maqolaning tayanch manbalari deb aytishimiz mumkin. Maqolani yozishda analiz va sintez metodiga ondashedildi hamda shu orqali to‘plangan va tahlil qilingan ma‘lumotlar asosidamaqola yozildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJA**

Dunyo tobora globalashib hamda integratsiyalashib borayotgan sari, kishilik jamiyati ijtimoiy-ma‘naviy qarashlarida, qadriyatlarida ma‘lum bir o‘zgarishlar ham sodir

bo‘lib bormoqda. Ushbu jarayonlar esa mamlakat hayotiga ham katta ta‘sir o‘tkazib kelishini yaxshi tushinib yetgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqimizning ulkan ilmiy merosiga tayangan holda hamda shu merosga munosib jamiyat sifatida yangi bir davr – “Uchinchi Renessans”ga erishish harakatlarini boshlab berdi. Yangi davr, yangi taraqqiyot, Yangi O‘zbekiston – mamlakatimizning oldiga qo‘yilgan ulkan maqsadlar hisoblanadi. Bu borada ham tizimli ravishda ishlar olib borilmoqda. O‘zining tarixiy missiyasiga xos bo‘lgan jadidchilik harakati davri, bizningcha, bir qancha uyg‘onish davri arboblarini vujudga keltirdi. «Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O‘zbekiston“ g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz» [1], — dedi davlat rahbari SHavkat Mirziyoyev. Bu bora Akmal Saidovning aytgan so‘zlari ham aynan o‘rinli hisoblanadi. Bugungi kunda biz uchinchi Uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Agar O‘zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo‘nalishi, ya‘ni ma‘rifat, ta‘lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko‘rsak ham, navbatdagi Ma‘rifat Renessansining markazi Yangi O‘zbekistan ekaniga hech kimda shubha qolmaydi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, "Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas"[2]. Ushbu katta maqsadni amalga oshirishda esa ilk qadamlar shubhasiz, ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish, malakali kadrlarni tayyorlab chiqarish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, ilmiy kashfiyotlarni orali xalqimizga xizmat qiladigan ziyolilar sinfining safini kengaytirish ishlarini amalga oshirish zarur. Bu borada esa, Toshkent Davlat Yuridik universiteti ixtisoslashtirilgan filiali o‘qituvchisi Po‘lat Qobilov[3]ning “Yangi O‘zbekiston” gazetasida bildirgan fikrlarini aytib o‘tish joiz: Uyg‘onish davrini bevosita ta‘lim sohasisiz tasavvur qilish mushkul ekani hech kimga sir emas. Ta‘lim sohasidagi islohotlar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz 2020 yil 23 – sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni ko‘z o‘ngimizga keladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu Qonunda masofaviy ta‘lim tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internetdan foydalanish

orqali ta'lim olish shakllaridan biri sifatida berilgan. Ushbu ta'lim shaklining ahamiyati va zaruriyati pandemiya davrida, asosan, maktablar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari o'quvchilari orasida kasallikning ommaviy tarqalishini cheklashga yordam berganida isbotlangan. Shuningdek, ushbu qonunga yaqin mazmundagi yana boshqa qonun hujjatlari asosida oliy ta'lim tizimi qamrovi muntazam oshirib borilmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidentining tegishli qaror va farmonlari ham chiqqan[4] Uchinchi Renessansni amalga oshirish yo'lida qilinayotgan ishlarning nechog'lik muhimligi ko'plab ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib borayotgan olimlar ham tegishlicha sharhlar berishmoqda. Xususan, ulardan biri Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Hazrat Jabborov bo'lib u Uchinchi Renessans va Ma'naviy taraqqiyot haqida atroflicha to'xtalib o'tgan[5]: Uchinchi renessans milliy g'oya nima uchun biz uni ma'naviy g'oya, deb atashimiz kerak? Bunda ma'no degan so'zdan boshlaymiz. Chunki uchinchi renessans davri mukammal amalga oshishi uchun, tez amalga oshishi uchun odamlar, yoshlar uchinchi renessansning ma'nosini tushunib olishlari kerak, qabul qilib olishlari kerak. O'ziga manfaatli ekanligini anglashlari kerak. O'zini baxtli bo'lishi uchun uchinchi renessans bo'lishi kerakligiga iqror bo'lishi kerak. Ma'nosini to'g'ri anglashi shart.

Prezidentimiz boshlab bergan "Yangi Uyg'onish" davriga yetish yo'lining asoslari albatta ilm-fan bilan bo'g'liq. Shu sababli yurtimizda Oliy ta'limdan keying ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, yuksak ilmiy salohiyatga ega kadrlargina Yangi Renessansga yetaklay olishadi va bunda ularga ta'lim berayotgan fan doktorlari, professor-o'qituvchilarning bu boradagi hissasi katta. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu borada tegishli qarorlar ishlab chiqqan[6] O'zbekistonni yangi davrga olib chiqishda ma'naviyat hamda maorifning muhimligini ham yuqorida keltirilgan ko'plab dalillardan bilishimiz mumkin. Hozirgi kunda Vatanimiz buyuk va tarixiy o'zgarishlar davrida turibdi. Bu yo'lda barchamiz birlashib harakat qilishimiz lozim.

## **XULOSA**

Maqolada yozilgan fikrlar va dalillar asosida ma'naviyat, ilm-fan hamda bularning asosida vujudga keladigan yangi Renessans haqida shuningdek ushbu jarayonlarning hozirgi kunda amalga oshirilish ishlari haqida so'z yuritildi. O'tgan asrning boshlarida jadidchilik faoliyatining boshlanishi bilan vujudga kelgan maqsad – Uchinchi Renessans o'z davrida amalga oshmay orzu-maqsadligicha qolib ketti. Ammo bugungi kunda ushbu harakat qayta tiklanib Yangi Renessansni amalga oshirishning tamal toshlari

qo'yilmoqda. Bu jarayonlarda esa mamlakatimizning butun aholisi birdamlikda harakat qilishsa, bu maqsad albatta amalga oshadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/#>
2. [Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans: ma'no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi \(pravacheloveka.uz\)](http://pravacheloveka.uz)
3. [Uchinchi renesans davriga navbatdagi qadam! \(yuz.uz\)](http://yuz.uz)
4. [PQ-3775-coH 05.06.2018. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida \(lex.uz\)](http://lex.uz)
5. [Uchinchi renessans – yangi o'zbekistonning taraqqiyot, tinchlik va farovonlik kafolati \(uza.uz\)](http://uza.uz)
6. [304-coH 22.05.2017. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](http://lex.uz)